

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xurshidabonu Xurram qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

CHALLENGES IN IMPROVING THE LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN “ON GUARDIANSHIP AND TRUSTEESHIP” BASED ON DIGITAL TRANSFORMATION AND INTERNATIONAL STANDARDS

Choriyeva Xurshidabonu Xurram kizi,

Senior lecturer at the Department of Legal Sciences

of the Faculty of Social Sciences

of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: Xushnud0388@gmail.com

Abstract. This article explores the current challenges of improving the Law of the Republic of Uzbekistan “On guardianship and trusteeship” in the context of digital technologies, electronic document management, and artificial intelligence tools.

The study addresses institutional reforms in guardianship bodies, the role of “Inson” social service centers, and the need for legal integration of the Unified Social Protection Information System.

A comparative legal analysis with Russia, Kazakhstan, Germany, France, and the United States provides insights into aligning national legislation with modern standards.

Furthermore, scholarly views from Uzbek and international experts inform both theoretical and practical evaluations of the law. The paper substantiates the need to develop guardianship and trusteeship as a mechanism to protect human dignity under contemporary socio-technological conditions.

Keywords: guardianship, trusteeship, digitalization, information system, artificial intelligence, law, social protection, international experience, state control, legal reform.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “VASIYLIK VA HOMIYLIK TO‘G‘RISIDA”GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Choriyeva Xurshidabonu Xurram qizi,

Mipzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy univertsiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Huquqiy fanlar kafedrasining katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonunini zamonaviy raqamli texnologiyalar, elektron hujjat aylanmasi hamda sun‘iy intellekt vositalari asosida takomillashtirish masalalari tahlil etilgan.

Tadqiqotda vasiylik organlari tuzilmasidagi institutsional islohotlar, “Inson” markazlari faoliyati va “Yagona ijtimoiy himoya axborot tizimi”ning huquqiy jihatdan qonuniy asoslanish zarurati ko‘rsatib berilgan.

Xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasi (Rossiya, Qozog‘iston, Germaniya, Fransiya va AQSH) bilan qiyosiy tahlillar orqali milliy qonunchilikni zamon talablariga mos holda isloh etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Shuningdek, milliy va xorijiy olimlarning ilmiy nuqtayi nazarlari asosida qonun normalariga nazariy va amaliy baho berilgan. Maqolada zamonaviy yondashuv asosida vasiylik va homiylik institutining inson qadrini himoya qiluvchi mexanizm sifatida rivojlantirish zarurati asoslangan.

Kalit so‘zlar: vasiylik, homiylik, raqamlashtirish, axborot tizimi, sun‘iy intellekt, qonun, ijtimoiy himoya, xalqaro tajriba, davlat nazorati, huquqiy islohot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N43>

Kirish. O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda – Qonun) 2014-yilda qabul qilingan bo'lib, vasiylik va homiylik sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yagona me'yoriy baza yaratgan edi [1]. Ushbu Qonun 9 bob, 50 moddadan iborat bo'lib, milliy va xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan. Qonun vasiylikka muhtoj bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim institutni yaratib, avval tarqoq holda Fuqarolik va Oila kodekslarida keltirilgan normalarni bir tizimga keltirdi.

Biroq, oradan o'n yildan ortiq vaqt o'tib, jamiyatdagi o'zgarishlar va raqamli texnologiyalar rivoji mazkur Qonunni qayta ko'rib chiqish va zamonaviy talablarga mos holda takomillashtirish zaruratini tug'dirmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunini raqamlashtirish, elektronlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirish dolzarbligi tahlil etilib, olimlar fikrlari, xalqaro trendlar va xorijiy tajriba misollari asosida takliflar ilgari suriladi.

Metodologiya. Mazkur ilmiy tadqiqot huquqshunoslik va ijtimoiy sohalar tutashuvidagi murakkab masala vasiylik va homiylik institutining zamonaviy talablar asosida takomillashtirilishiga bag'ishlangan bo'lib, qonunchilikni tahlil qilishda **qiyosiy-huquqiy, tizimli, tahliliy** va **prognozlash metodlaridan** samarali foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarga tayanadi:

Birinchidan, qonunchilik tahlili. O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi amaldagi Qonuni, uning 2014-yilda qabul qilingan asosiy normalari va so'nggi institutsional islohotlar doirasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar (jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yildagi 893-son qarori) mazmunan tahlil qilindi. Qonun normalari amaldagi ijtimoiy munosabatlar va institutsional o'zgarishlar bilan solishtirildi.

Ikkinchidan, institutsional va tarkibiy tahlil. Vasiylik va homiylik organlari tuzilmasida sodir bo'layotgan institutsional transformatsiya, xususan, Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi "Inson" markazlariga o'tish jarayoni qonunchilikdagi nomuvofiqliklar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Uchinchidan, qiyosiy-huquqiy tahlil. Rossiya, Qozog'iston, Fransiya, Germaniya, AQSH va Buyuk Britaniya kabi davlatlarning vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonunlari o'rganilib, ulardagi ilg'or amaliyot, mexanizm va institutlar (patronat oila, sud nazorati, elektron monitoring, vasiylik kengashlari va h.k.) bilan milliy qonunchilik hujjatlari qiyos qilindi.

To'rtinchidan, xalqaro standartlarga muvofiqlik tahlili. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (CRPD), 2009-yilgi "Bolalarni alternativ parvarish qilish bo'yicha qo'llanma" va boshqa xalqaro normalarning milliy qonunchilikka implementatsiya darajasi baholandi.

Beshinchidan, ilmiy adabiyot va ekspert xulosalari tahlili. Sh.Shamshetov, F.Urmanbayeva, N.M.Yershova kabi milliy va xorijiy olimlarning mavzuga oid ilmiy maqolalari tahlil qilinib, ularning nazariy yechim va takliflari bilan maqolada ilmiy polemika yuritildi.

Oltinchidan, axborot texnologiyalari va raqamlashtirish usullari. Sun'iy intellekt, elektron ma'lumotlar bazalari, "Yagona ijtimoiy himoya axborot tizimi" kabi raqamli

platformalarni vasiylik tizimida tatbiq etish imkoniyatlari tadqiq etildi va ularning huquqiy oqibatlari tahlil qilindi.

Ushbu metodik yondashuvlar orqali maqolada “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonunni raqamlashtirish va xalqaro tajriba asosida takomillashtirish zarurati ilmiy-amaliy nuqtai nazardan asoslab berildi. Metodologiyaning murakkab va ko‘p qatlamli mazkur masalaning huquqiy, institutsional va texnologiyaviy jihatlarini to‘liq qamrab olishni ta‘minlaydi.

Tadqiqot natijalari. Bugungi kunda davlat boshqaruvi va ijtimoiy himoya sohasida raqamlashtirish jadal sur‘atlarda kechmoqda. Lekin, vasiylik va homiylik sohasidagi amaliyotda haligacha an‘anaviy byurokratik usullar ustunlik qilib, ma‘lumotlar qog‘oz shaklida yuritilishi kuzatiladi. Masalan, vasiylikka muhtoj shaxslarni aniqlash va ularga vasiy tayinlash jarayonlari turli idoralar o‘rtasida axborot almashinuvini talab etadi, biroq, yagona elektron baza mavjud emasdi. Bu esa, ma‘lumotlarni kechikishi yoki ba‘zi bolalarni e‘tibordan chetda qolishiga olib kelayotgani ta‘kidlandi [2].

Haqiqatan ham, mahalliy darajadagi e‘tiborsizlik tufayli ota-ona qaramog‘isiz bolalar vaqtincha nazoratsiz qolib ketayotgan hollar aniqlanib, bu kabi bolalarga kechikkan holda vasiylik belgilanmoqda. Demak, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish doirasida har bir vasiylikdagi bola haqida yagona elektron ma‘lumotlar bazasini yaratish dolzarb masala sanaladi.

Shu munosabat bilan, 2019-yilda vasiylik organlari faoliyatini isloh etishga qaratilgan Prezident qarori loyihasida idoralararo elektron hamkorlik tizimini yaratish vazifasi belgilandi [3]. Unga muvofiq, vasiylik va homiylik organlari o‘rtasida ma‘lumot almashishning elektron tizimi joriy etilib, faoliyat samaradorligi va shaffofligini oshirish ko‘zda tutilgan edi.

Oradan o‘tgan vaqt mobaynida bu yo‘nalishda muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2024-yil oxirida davlat bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini isloh qilib, tuman (shahar) hokimliklari qoshidagi vasiylik va homiylik komissiyalari tugatildi hamda ularning vakolatlari yangi tashkil etilgan “**Inson**” ijtimoiy xizmatlar markazlariga o‘tkazildi. Ya‘ni endi har bir mahalla (hudud)dagi ijtimoiy xodimlar ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ishlab, vasiylikka olingan bolalar holatini muntazam monitoring qilib boradi.

Bu o‘zgarish qonunchilikda aks ettirilishi kerak bo‘lgan muhim yangilikdir. Zero, avval amalda vasiylik organlari Xalq ta‘limi bo‘limlari tarkibida faoliyat yuritib kelgan bo‘lsa, endilikda ular Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi (IHMA)ning tuman (shahar) “Inson” markazlari sifatida qayta shakllandi [4].

Milliy qonunchilikda “vasiylik va homiylik organi” tushunchasi va uning vazifalarini yangi tuzilmaga muvofiq qayta ta‘riflash talab etilmoqda.

Raqamlashtirish nuqtai nazaridan eng muhim qadam – yagona axborot tizimini joriy etishdir. 2024-yil 27-dekabrda Vazirlar Mahkamasining 893-son qarori bilan “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi faoliyatga kiritilib, unga yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar haqida barcha ma‘lumotlar kiritilishi shart qilib qo‘yildi. Ushbu tizim orqali bolalarning shaxsiy ma‘lumotlari, sog‘lig‘i holati, vasiy yoki homiy to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shuningdek bolaga tegishli mulkning elektron hisobini yuritish mexanizmi yo‘lga qo‘yilmoqda. Bundan buyon vakolatli organ – IHMAning “Inson” markazi har bir bola bo‘yicha elektron ijtimoiy ish varag‘ini shakllantirib, uning hayotiy holatini kuzatib boradi hamda vasiyning o‘z majburiyatlarini qay darajada bajarayotganini baholaydi.

Shu tariqa, raqamlashtirilgan nazorat orqali qonun talablarining ijrosi ham kuchayadi. Bir soʻz bilan aytganda, qonunni takomillashtirish jarayonida mazkur axborot tizimiga oid normalarni kiritish, elektron hujjat aylanmasini huquqiy asoslash va maʼlumotlarni himoya qilish choralari aniq belgilash zarur.

Sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalasiga kelsak, bu borada ham xalqaro tendensiyalardan orqada qolmaslik kerak. Ayrim rivojlangan mamlakatlarda bolalarni himoya qilish tizimida maʼlumotlar tahlili va prognozlash uchun algoritmik modellar sinab koʻrilmogʻda.

Masalan, AQSHda baʼzi ijtimoiy xizmatlar nogironligi boʻlgan bolalar yoki noqulay oilalarni “xavf guruhi”ga kiritishda AI yordamida tavakkallik baholash tizimlarini qoʻllamoqda, bu esa, vasiylikka muhtoj bolalarni erta aniqlashga xizmat qilishi mumkinligi aytilmoqda [5]. Shu bilan birga, AQSH huquqshunoslari oilaviy ishlarga AI texnologiyalarini jalb etishda huquqiy va konstitutsiyaviy xavflar mavjudligi haqida bahs yuritishmoqda. Masalan, AQSHlik olim V.Benton tomonidan “sunʼiy intellekt qarorlari qanday shaffoflik va adolat mezonlariga javob berishi kerak”ligi haqidagi savollar koʻtarilmoqda [6].

Oʻzbekiston sharoitida sunʼiy intellektni vasiylik va homiylik sohasiga tatbiq etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak boʻlgan masala hisoblanadi. Lyekin, kelgusida vasiylikka muhtoj bolalarning xavf omillarini avtomatik tahlil qilish, ularni vasiy oilalarga moslashtirishda ekspert tizimlaridan foydalanish kabi imkoniyatlar paydo boʻlishi mumkin.

“Vasiylik va homiylik toʻgʻrisida”gi Qonunni takomillashtirishda bu texnologiyalarni qoʻllash uchun huquqiy zamin tayyorlab borish, masalan, axborot bazalaridagi maʼlumotlar asosida tavsiya beruvchi sunʼiy intellekt vositalarini sinovdan oʻtkazish tartiblarini belgilovchi normalar kiritish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bu borada maʼlumotlarni maxfiyligi va qarorlar ustidan inson nazorati saqlanishi kabi prinsiplarga alohida eʼtibor qaratish talab etiladi.

Vasiylik va homiylik huquqiy institutini takomillashtirish masalalari oʻtgan davr mobaynida huquqshunos olimlar tomonidan doimiy eʼtiborda boʻlib kelgan. Qonun qabul qilinishidan avval, ushbu sohaga oid normalar turli qonun hujjatlarida tarqoq holda boʻlganligi va bu amaliyotda qiyinchiliklar keltirib chiqarganligi ilmiy adabiyotlarda taʼkidlangan edi.

Jumladan, milliy olimlarimizdan Sh.Shamshetov oʻzining 2016-yildagi ilmiy maqolasida Oʻzbekistonda vasiylik va homiylikni huquqiy tartibga solishdagi muammolarni tahlil qilib, turli normativ hujjatlarda vasiylik organlari tushunchasiga aniq taʼrif berilmaganini, ayrim toifa shaxslar (sud tomonidan layoqatsiz deb topilgan kattalar yoki sogʻligi tufayli oʻz huquqlarini amalga oshira olmaydigan voyaga yetganlar) uchun vasiylik mexanizmlari yetarlicha ochib berilmaganini qayd etgan [7].

Shuningdek, vasiylikka muhtoj shaxslarni joylashtirish shakllari cheklangan boʻlib, ular orasida vaqtinchalik yoki oldindan vasiylikka olish kabi mexanizmlar nazarda tutilmagani tanqid qilingan. Olim bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun maxsus qonun qabul qilish lozimligini taʼkidlab, aynan shu asosda yangi qonun loyihasi ishlab chiqilganini maʼlum qilgan [8].

Darhaqiqat, yangi Qonun orqali ilk bor “vasiylik va homiylik organi” tushunchasi rasman kiritildi, vasiy va homiylar tayinlash tartib-taomillari, vasiylikdagi shaxsning mulkiy huquqlarini muhofaza qilish mexanizmi aniq bayon etildi. Shu maʼnoda, qonun ijodkorlari va olimlar hamkorligida avvalgi huquqiy boʻshliqlar toʻldirildi, deb hisoblash mumkin.

Endilikda Qonunni yangi sharoitlarga moslashtirish jarayonida ham olimlarning ilmiy tavsiyalari muhim ahamiyatga ega. Masalan, milliy olimlarimizdan F.Urmanbayeva o'zining 2023-yilgi tadqiqotida vasiylik institutining murakkabligini ta'kidlab, uni oilaviy huquq va fuqarolik huquqi chorrahasidagi institut sifatida baholagan [9].

Uning qayd etishicha, vasiylik, homiylik va patronat munosabatlari nafaqat bolalarni parvarishlash masalalarini, balki vasiylikdagi shaxsning mulkiy munosabatlarini ham qamrab oladi, shu boisdan, huquqiy tartibga solishda bu jihatlarni hisobga olish lozim.

Chindan ham, vasiylik instituti bir vaqtning o'zida shaxsga g'amxo'rlik (vasiylikdagi bolaning ta'lim-tarbiyasi, sog'lig'i) va uning mulkini boshqarish majmuasini o'z ichiga oladi. Qonunning amaldagi tahririda bu jihatlarda 7 va 8-boblarda belgilangan bo'lib, vasiylarning mulkni boshqarishi ustidan vasiylik organlari nazorati mexanizmi va vasiylikdagi shaxsning mulkiy huquqlarini himoya qilish qoidalari kiritilgan edi.

Biroq, raqamlashgan zamonda vasiylikdagi shaxslarning mulkiy va shaxsiy huquqlarini kafolatlash uchun yanada aniqroq amaliy choralar kerak bo'lishi mumkin. Olimlar, jumladan F.Urmanbayeva, xorijiy tajribalarni keltirib, **Fransiya** va **Ispaniya** fuqarolik kodekslarida vasiylik organlarining institutsional vazifalari mustahkamlanganini misol qilib o'tgan [9].

Shu bilan birga, rossiyalik olim N.M.Yershova vasiylikni amalga oshirishda davlat nazoratining o'rni va vasiylik subyekti huquqlarini cheklash chegaralari borasida ilmiy bahslar yuritib, uni "fuqarolik huquqiy va protsessual vakillik" nuqtai nazaridan ham o'rgangan [10].

Ushbu ilmiy munozaralar milliy qonunchilikni takomillashtirishda nazariy poydevor vazifasini o'taydi. Masalan, vasiylikni tayinlashda nomzodlarning shaxsiy sifatlarini baholash va tayyorlash masalasini olaylik. 2019-yildagi islohot doirasida tumanlar kesimida qo'shimcha vasiylik inspektorlari shtat birliklari ajratilib, ularning psixologik, yuridik va ijtimoiy ish sohasida malakaga ega kadrlardan tayinlanishi belgilandi. Olimlar ham vasiylikka da'vogar shaxslarni maxsus o'quv kurslaridan o'tkazish va ruhiy-pedagogik tayyorgarligini tekshirish zarurligini ta'kidlab kelishgan.

Yangi sharoitda bu talablar yanada dolzarbdir. Vasiylikka nomzodlar "Inson" markazlari qoshida tashkil etiladigan o'quv dasturlari orqali tayyorlanishi, sun'iy intellekt yordamida ham ularning ma'lumotlari tekshirilishi mumkin (*masalan, sudlanmaganlik, sog'ligi holati to'g'risida elektron ma'lumotlar va boshqalar*). Qonunga bunda aniq normalar kiritilishi lozim. Xususan, vasiylikka nomzodlarning elektron reyestrini yuritish, har bir nomzod bo'yicha xulosa berish tartibini belgilovchi qoidalarni olimlar tavsiyalari asosida ishlab chiqish mumkin.

Yana bir muhim jihat – vasiylik va homiylik sohasida huquqni qo'llash amaliyotini o'rganishdir. Olimlar ko'pincha qonun normasining ishlashi amaliyotda qiyinchilikka uchrayotgan nuqtalarga e'tibor qaratadilar. Ya'ni, vasiylik belgilanishi uchun amalda bir oylik muddat belgilangan (*vasiylikka muhtoj bolani aniqlagandan keyingi tartib-taomillar uchun*). Sh.Shamshetov bu muddat ayrim hollarda uzoqlik qilib, bolaning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkinligini ta'kidlagan.

Haqiqatdan ham, agar bola ota-onasiz qolsa, uni tez fursatda vaqtinchalik oilaga joylashtirish juda muhim. Yangi islohot doirasida joriy qilingan "dastlabki vasiylik" shakli shu muammoni hal etishga qaratilgan bo'lib, har qanday toifadagi vasiylikka muhtoj shaxs uchun tezkorlik bilan vaqtinchalik vasiy tayinlash imkoniyati yaratildi.

Vasiylik va homiylik sohasida bir qator xorijiy mamlakatlar so'nggi yillarda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirgan bo'lib, ularning tajribasi milliy qonunchiligimizni takomillashtirishda muhim hisoblanadi.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasida 2008-yili "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Fyederal qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun Rossiyada vasiylik organlari vakolatlarini qayta belgilab, yangi tushunchalar kiritdi.

Masalan, vasiylikka muhtoj shaxslarni "vaqtinchalik oila"ga joylashtirish, vasiylikka olinuvchilarning mulkini boshqarish tartibi aniqlashtirildi. Rossiya qonuni vasiy va homiylarning majburiyatlarini suiiste'moldan saqlash uchun bir qator kafolatlarini o'rnatgan.

Xususan, vasiy har yili o'z faoliyati bo'yicha hisobot topshiradi, vasiylik organidan ruxsat olmasdan vasiylikdagi shaxs nomidan yirik bitimlar tuzish taqiqlanadi, vasiylik organi huzurida vasiylarning bolalarga munosabati bo'yicha jamoatchilik nazorati komissiyalari faoliyat yuritadi [11].

Bunday mexanizmlar O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunda ham aks etgan, ammo amaliyotga to'liq joriy etilmagan. Masalan, O'zbekiston qonunida ham vasiyning hisobot berish majburiyati mavjud (6 va 7-boblar) bo'lsa-da, uning qanday shaklda va qay tartibda topshirilishi qonunosti hujjatlarida tartibga solinadi.

Rossiyada esa, bu hisobot uchun maxsus shakl va muddatlar belgilangan, vasiy hisobotini ko'rib chiqish va tegishli choralar ko'rish tartibi bor. Milliy qonunchiligimizda ham xorijiy tajriba asosida vasiylik organining nazorat vakolatlarini kengaytirish kerak. Jumladan, vasiylik organi vasiylikdagi bola yashaydigan uyga (oilaga) belgilangan davrda tashrif buyurib monitoring qilishi, bu haqda elektron bayon (akt) tuzishi qoida tariqasida belgilansa maqsadga muvofiq. Bunday tartib ayrim davlatlarda qonun bilan mustahkamlangan.

Qo'shni Qozog'iston tajribasi ham e'tiborga loyiq. Qozog'istonda vasiylik masalalari "Nikoh va oila to'g'risida"gi kodeks (2011-y.) hamda tegishli hukumat qarorlari bilan tartibga solinadi.

2014-yilda Qozog'istonda bolalarni himoya qilish tizimini takomillashtirish maqsadida vasiylik funksiyalari ta'lim idoralaridan maxsus "Bola huquqlarini himoya qilish qo'mitasi"ga o'tkazilgan edi.

Keyinchalik, 2022-2023-yillarda, bu sohada yana islohot o'tkazilib, vasiylik va patronat xizmati sotsial himoya sektorlari bilan integratsiya qilingan. Xususan, Qozog'istonda bolalarning ma'lumotlari yagona milliy baza – "Balapan" axborot tizimiga kiritilib, har bir yetim bolaga shaxsiy ID berilishi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, patronat oilalar institutini rivojlantirish uchun davlat subsidiyalari ajratilishi qonun bilan kafolatlangan.

Bu kabi yangiliklar O'zbekiston uchun ham qiziqarli hisoblanadi. Patronat (qabul qiluvchi) oila institutini rivojlantirish, ya'ni bolani vasiylikka olgan oilalarni davlat tomonidan moddiy rag'batlantirish va ularga metodik ko'mak berish tizimini qonunchilikda nazarda tutish mumkin. Hozirda milliy qonunchiligimizda patronat tushunchasi bor, lekin uning mexanizmlari to'liq ochib berilmagan. Xorij tajribasidan kelib chiqib, "oilaviy tarbiya" tushunchasini kengaytirish, patronat oila monitoringi va o'quvi bo'yicha normalarni qo'shish kabi takliflar paydo bo'ladi.

Yevropa mamlakatlariga nazar tashlasak, ularning ko'pchiligida vasiylik (guardian) va hamkorlik (curatorship, guardianship) instituti fuqarolik kodekslarida tartibga solinadi.

Masalan, **Fransiya fuqarolik kodeksida** vasiylik va balogʻatga yetgan layoqatsizlar uchun hamkorlik boʻlimlari bor. Fransiya vasiylik sud tomonidan tayinlanadi va har bir vasiylik uchun maxsus “vasiylik kengashi” (Conseil de famille) tuziladi. Bu kengash vasiy faoliyatini nazorat qiladi va muhim qarorlarni tasdiqlaydi. Bu jamoaviy nazorat modelida bolaning yaqin qarindoshlarini ham jarayonga jalb qilindi.

Germaniyada 2023-yil 1-yanvardan kuchga kirgan vasiylik islohoti (Betreuungsgesetz reformasi) orqali vasiylikka muhtoj kattalarga nisbatan “qoʻllab-quvvatlovchi vakillik” konsepsiyasini joriy qildi. Yaʼni endi vasiy (Betreuer) tayinlanishida shaxsning xohishi inobatga olinishi shart va vasiy uning hayotiy qadriyatlariga muvofiq qarorlar qabul qilishga majbur.

Bundan koʻrinadiki, Yevropa tendensiyasi vasiylikni inson qadr-qimmati va mustaqilligini yengilroq cheklovchi shaklga oʻtkazishdan iborat.

Oʻzbekistonda ham, ayniqsa kattalar vasiyligi borasida, Germaniya va boshqa Yevropa tajribasini oʻrganib, qonunga shaxsning vasiy tayinlanishi oldidan “vasiyatnoma (ijtimoiy oldindan koʻrsatma)”, yaʼni kimni vasiy etib tayinlanishini oldindan belgilab qoʻyish huquqi kabi mexanizmlarni kiritish mumkin.

Amerika Qoʻshma Shtatlarida vasiylik toʻgʻrisidagi qonunlar shtatlar kesimida farq qiladi, lekin umumiy trend keksalar va nogironlarga vasiy tayinlashda sud nazoratini kuchaytirish va hisobdorlikni oshirishdan iborat.

Masalan, ayrim shtatlarda “Vasiylik milliy reyestri” (National Guardianship Registry) tashkil etilgan boʻlib, har bir tayinlangan vasiy u yerda roʻyxatdan oʻtishi va yillik moliyaviy hisobot topshirishi talab etiladi.

Buyuk Britaniyada (Angliya va Uels) vasiylik instituti oʻrnini “Court of Protection” degan maxsus sud organi va “Public Guardian Office” degan idora egallaydi. Ular vasiy (deputy)larni tayinlaydi va nazorat qiladi. Britaniya qonunchiligiga 2005-yilda kiritilgan “Mental Capacity Act” asosida, shaxsning aqliy layoqati cheklangan holda ham uning oldindan berilgan koʻrsatmalari yoki ishonchli vakil tayinlash huquqi eʼtirof etilgan.

Shu tariqa, chet el tajribasi shuni koʻrsatadiki, vasiylik va homiylikni amalga oshirishda davlat nazoratini elektron texnologiyalar yordamida kuchaytirish (reyestrlar, axborot tizimlari), vasiylikning alternativ turlarini qonunlashtirish (patronat, vaqtinchalik vasiylik va h.k.) hamda shaxsning huquq va erkinliklarini maksimal saqlab qoluvchi mexanizmlarga oʻtish asosiy yoʻnalishlar boʻlib hisoblanadi. Fikrimizcha, milliy qonunchiligimizni yangilashda mana shu yoʻnalishlardagi xorijiy innovatsiyalardan foydalanish zarur.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan koʻrinadiki, Oʻzbekiston Respublikasining “**Vasiylik va homiylik toʻgʻrisida**”gi Qonunini zamon talablari asosida takomillashtirish kun tartibidagi dolzarb vazifadir. Shu munosabat bilan, Qonunga chet el tajribasidan kelib chiqib, quyidagi normalarni kiritish takliflari ilgari suriladi:

Birinchidan, raqamlashtirish va elektronlashtirish sharoitida mazkur qonunga vasiylik organlarining yangi tuzilmasi (Ijtimoiy himoya agentligi “Inson” markazlari) va yagona axborot tizimi bilan bogʻliq normalarni kiritish zarur.

Elektron hujjat aylanishi, maʼlumotlar bazasiga kiritiladigan maʼlumotlar toʻgʻrisidagi huquqiy kafolatlar qonun darajasida mustahkamlanishi kerak. Bu amaliyotda byurokratik toʻsiqlarni kamaytirib, vasiylikka muhtoj shaxslarni aniqlash va joylashtirish tezkorligini oshiradi.

Ikkinchidan, sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun huquqiy zamin yaratish lozim. Xususan, Qonunda vasiylik organlariga axborot texnologiyalari orqali bolalar holatini monitoring qilish va profilaktika olib borish vakolatini berishi mumkin. Ayrim yuridik adabiyotlarda vasiylik organlari faoliyatiga elektron nazorat vositalarini kiritilishi sud qarorlarining ijrosini ta'minlashga ham xizmat qilishi ta'kidlangan.

Uchinchidan, olimlar fikrlari va ilmiy tavsiyalarini inobatga olish qonunni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega.

Yuqorida qayd etilganidek, milliy olimlarimiz Sh.Shamshetov, F.Urmanbayeva kabi olimlar vasiylikka nomzodlarni tayyorlash, vaqtinchalik vasiylik, vasiylik organlarining institutsional maqomini aniqlash va boshqa qator takliflarni ilgari surganlar. Ushbu takliflar amalda qonunga qisman kiritilgan bo'lsa-da, hali to'liq o'z aksini topmagan. Ilmiy polemikada bildirilgan fikr-mulohazalarni hisobga olib, Qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish taklif etiladi.

To'rtinchidan, xalqaro standartlar bolaning oilada yashash huquqi, nogiron shaxslarning qaror qabul qilishga oid huquqlari qonun normalarida aks ettirilishi lozim. Bu O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi va majburiyatlariga ham mos keladi.

Beshinchidan, xorijiy tajriba asosida qonunga yangi institut va mexanizmlarni joriy etish mumkin. Masalan, vasiylikka tayinlashda sud tartibini o'rnatish, patronat oilalarga davlat ko'magini qonunlashtirish, vasiylikdagi shaxslarning huquqlarini suiiste'moldan himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish shular jumlasidandir.

Xulosa o'rnida aytganda, vasiylik va homiylik instituti kuchli ijtimoiy himoya mexanizmi sifatida jamiyatning eng zaif qatlami bo'lmish yordamga muhtoj shaxslar manfaatlarini muhofaza qiladi. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan "Inson qadri uchun" siyosatining bir ko'rinishi sifatida bu institutni zamonaviylashtirish, raqamli texnologiyalar bilan yanada takomillashtirish va xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirish kelajak avlod himoyasiga qo'yilgan muhim investitsiyadir.

Qonunchilikdagi yangilanishlar vasiylik va homiylik faoliyatining samaradorligini oshirib, uning tezkor, shaffof va adolatli bo'lishini ta'minlashi lozim. Shu maqsadda tegishli vazirlik va idoralar, huquqshunos olimlar hamda fuqarolik jamiyati vakillari hamkorligida qonunga o'zgartish va qo'shimchalar tayyorlab, uni ilmiy jihatdan asoslangan holda qabul qilish tavsiya etiladi. Bu jarayonda mazkur maqolada keltirilgan tahliliy xulosalar va manbalarga tayanilsa, qonunning yangi tahriri ham milliy amaliyot muammolariga javob beradigan, ham xalqaro standartlarga muvofiq yagona zamonaviy hujjat bo'lib xizmat qilishini kutish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 22.10.2021 й., 03/21/723/0983-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон
2. <https://yuz.uz/oz/news/96178>
3. <https://kun.uz/kr/34928741?q=%2F34928741>
4. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 06.01.2026 й., 09/26/840/0012-сон
5. <https://www.americanbar.org/groups/litigation/resources/newsletters/childrens-rights/winter2024-algorithmic-decision-making-in-child-welfare-cases/>
6. <https://northernkentuckylawreview.com/blog/when-artificial-intelligence-algorithms-decide-family-fate-ai-in-child-welfare-and-custody-determinations>
7. Шамшетов Шарафатдин Сарсенович ОПЕКА И ПОПЕЧИТЕЛЬСТВО ПО ЗАКОНОДАТЕЛЬНОМУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН // НАУ. 2016. №4 (20). URL:

- <https://cyberleninka.ru/article/n/opeka-i-popechitelstvo-po-zakonodatelstvu-respubliki-uzbekistan> (дата обращения: 31.01.2026).
8. <https://www.norma.uz/parlament/sovershenstvovanie-popechitelstva>
 9. Урманбаева , Ф. (2023). Органы опеки и попечительства в законодательстве зарубежных стран и Узбекистана. Общество и инновации, 4(1/S), 131–135. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss1-pp131-135>
 10. Ершова Н.М. Проблемы гражданско-правового регулирования личных и имущественных отношений в сфере семьи: Дисс. ... докт. юрид. наук. М., 1979. С. 97.
 11. Сеитниязов К.П. Фуқаролик ҳуқуқида вакиллик ва уни амалга ошириш муаммолари: Ҳуқуқ магистри академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2014. – Б. 31-32.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).